

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH USLUBI

**Toshkent davlat transport universiteti,
Toshkent shahri, O‘zbekiston Respublikasi**

**Choriyev J.A (TDTrU, Tayanch doktorant),
Fayzullayev E.Z (TDTrU, t.f.n., dotsent),
Xakimov Sh.K (TDTrU, t.f.n., dotsent)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini raqamlashtirish uslubi haqida taklif va tavsiyalar beriladi. Yo‘l-transport hodisalari haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash hamda tahlil qilish jarayonini avtomatlashtirilgan tizim yordamida olib borish mumkin. Bu tizim yo‘l-transport hodisalarini ro‘yxatga olish mobil ilovasi va unga bog‘langan statistik ma’lumotlarni o‘zida saqlovchi onlayn platformadan tashkil topadi. Shu sababli so‘nggi yillarda barcha soha mutasaddilari orasida mobil ilovalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, yo‘l-transport hodisalari, mobil ilova, onlayn platforma.

DIGITAL METHOD OF TRAFFIC INCIDENT RECORDING SYSTEM

**Tashkent State Transport University,
Tashkent, Republic of Uzbekistan**

**Choriev J.A (TSTU, Doctoral student),
Fayzullaev E.Z (TSTU, associate professor),
Khakimov Sh. K (TSTU, associate professor)**

Abstract. In this article, proposals and recommendations are made about the method of digitization of the system of recording traffic accidents in the territory of Uzbekistan. The process of collecting, storing processing and analyzing data about traffic accidents can be carried out with the help of an automated system. This system consists of a traffic accident registration mobile application and an online platform that stores related statistics. For this reason, in recent years, there has


been an increasing interest in the use of mobile applications among executives of all sectors.

Keywords: Digitization, traffic accidents, mobile application, online platform.

Butun dunyoda avtomobil sanoati o'sgani sari insonlarning yo'l-transport hodisalaridan jabr ko'rish ehtimoli oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib yo'l transport hodisalaridan eng ko'p aziyat chekadiganlarning katta hissasi rivojlanayotgan va nisbatan qoloq mamlakatlarga to'g'ri kelmoqda. Transport infrastrukturasini yaxshi yo'lga qo'ygan iqtisodi boy mamlakatlar esa bu muammolarni birin ketin yengib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra har yili 1.3 million odam yo'l transport hodisasi qurboni bo'lishadi. 20-50 million odam jarohatlanadi va ulardan ko'pchiligi nogiron bo'lib qolishadi. Yo'l-transport hodisalari odamlarga, ularning oilalariga va umuman davlatlarga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Bu yo'qotishlar davolanish xarajatlari, shuningdek, jarohatlari tufayli halok bo'lgan yoki nogiron bo'lganlar, shuningdek, jarohatlanganlarga g'amxo'rlik qilish uchun ishdan yoki maktabdan dam olishlari kerak bo'lgan oila a'zolari uchun mahsuldorlikni yo'qotishdan kelib chiqadi. Yo'l-transport hodisalari zarari aksariyat mamlakatlarga yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil qiladi.

Yo'l-transport hodisasi yo'l-transport infratuzilmasi rivojlanishiga eng salbiy ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Yo'l-transport hodisasi - bu diqqat bilan tahlil qilinishi kerak bo'lgan ko'p omilli hodisa. Xavfli joylarda qatnov yo'lini yaxshilash maqsadida yo'l-transport hodisalarining qaynoq hududlarini aniqlash yo'l harakati xavfsizligining muhim bosqichi hisoblanadi.

РЕСПУБЛИКА ХУДУДИДА 2022 ЙИЛНИНГ 12 ОЙИ ДАВОМИДА СОДИР ЭТИЛГАН ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИ ТАҲЛИЛИ



1-rasm: 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari tahlili.

O‘zbekiston hududida o‘lim va tan jarohatiga sabab bo‘luvchi yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish alohida jarayondir.

Ichki ishlar organlarida yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish va statistik hisobotlarni shakllantirish tartibi:

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘lim (boshqarma)larining tegishli tarkibiy bo‘linmasi tomonidan yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish maqsadida tegishli hududda sodir bo‘lgan har bir yo‘l-transport hodisasining hisobi olib boriladi. Toshkent shahrida yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan olib boriladi.

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘lim (boshqarma)larining (Toshkent shahrida — Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining) navbatchi qismi tomonidan Ichki ishlar organlarida yo‘l-transport hodisalarini va ular haqidagi ma’lumotlarni qayd etish kitobi yuritiladi. Ichki ishlar organlariga yo‘l-transport hodisalari yuz berganligi bo‘yicha kelgan xabar yuzasidan ma’lumotlar mazkur kitobda qayd etiladi.

T/r	YTH haqida tushgan xabar (yil, oy, kun, soat)	YTH haqida xabar bergan shaxslar hamda YTH oqibatida tan jarohati olgan va halok bo'lgan shaxslar keltirilgan tibbiyot muassasalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar	YTH sodir bo'lgan shahar, tuman va avtomobil yo'li va ko'chani nomi va km	YTHning qisqacha bayoni (vaqti), dastlabki sababi va turi	YTH oqibatida tan jarohati olgan va halok bo'lgan shaxslar to'g'risida to'liq ma'lumot (F.I.Sh, yoshi, jinsi)	YTHda ishtirok etgan transport vositalari to'g'risida to'liq ma'lumot (rusumi, davlat raqami belgisi, tegishiligi)	IIO navbatchisi tomonidan YTH to'g'risida kimga, qachon xabar berilganligi va xabarni kim qabul qilib olganligi to'g'risidagi ma'lumotlar
1	2	3	4	5	6	7	8

2-rasm. Ichki ishlar organlarida yo‘l-transport hodisalarini va ular haqidagi ma’lumotlarni qayd etish kitobi

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘lim (boshqarma)larining tegishli tarkibiy bo‘linmasi (Toshkent shahrida — Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi) tomonidan yo‘l-transport hodisalari hisobini olib borish, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish, ma’lumotlarning to‘liqligi va to‘g‘riligini nazorat qilish uchun yo‘l-transport hodisalarining har biriga Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish varaqasi to‘ldiriladi.

-Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish varaqasi shakli O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

-Statistik hisobot Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish varaqasida aks ettirilgan ma’lumotlar asosida shakllantiriladi.

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘lim (boshqarma)lari har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 3-kunidan kechikmay Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish varaqasi asosida shakllantirilgan ma’lumotni elektron axborot tizimlari orqali tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalariga taqdim etadilar.

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalari kelib tushgan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasiga taqdim etadilar.

-O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hisobot choragidan keyingi oyning 8-kunidan kechikmay statistik hisobotni tayyorlaydi.

Statistik hisobotning hamda hududiy ichki ishlar organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning shakllari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo'lim (boshqarma)larining tegishli tarkibiy bo'linmasi (Toshkent shahrida — Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi) har oyda kamida bir marta vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarga tegishli hududda yo'l-transport hodisalari haqidagi ma'lumotlarni olish, ularni hisobot shaklida ko'rsatilgan yo'l-transport hodisalari haqidagi ma'lumotlar bilan solishtirish imkoniyatini yaratadi.

-Tuman (shahar) ichki ishlar bo'lim (boshqarma)larining tegishli tarkibiy bo'linmasi (Toshkent shahrida — Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi) har oyda kamida bir marta yo'l-transport hodisalari haqidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasalari bilan solishtirish ishlarini tashkil qiladi.


-Sodir etilgan vaqtda turli sabablarga ko'ra ichki ishlar organlari tomonidan hisobga olinmasdan qolgan yo'l-transport hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlar yo'l-transport hodisalari sodir etilganligi aniqlangandan keyin, u sodir bo'lgan davr bo'yicha hisobga olinishi shart.

Yuqoridagi ma'lumotdan kelib chiqib O'zbekistonda yo'l-transport hodisalarini hisobga olish Respublika bo'ylab ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi va ma'lumotlar markazlashgan tizimda Ichki ishlar vazirligiga yetkaziladi. Statistik hisobot tayyorlanadi va ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu jarayonlarni amalga oshirish ancha vaqt talab etadi.

Ushbularni inobatga olgan holda quyidagi yo'l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini raqamlashtirish uslubi ishlab chiqildi.

Ushbu modelda o'lim va og'ir tan jarohatiga sabab bo'luvchi yo'l-transport hodisalarini real vaqt rejimida hisobga olishga mo'ljallangan mobil ilova ishlab chiqiladi. Hisobga olingan yo'l-transport hodisalari haqidagi ma'lumotlar markaziy serverga uzatiladi. Serverdagi barcha statistik malumotlar avtomatlashtirilgan holda jadval va grafik ko'rinishlarida qayta ishlanadi va maxsus online platformada ma'lumotlarning tahliliy holati aks etadi. Undan tashqari yo'l-

transport hodisalari sodir etilgan nuqtalarning joylashuv holatlari vizual xaritada aks etadi. Bu yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan joylarning qaynoq nuqtalarini tasvirlab beradi.



2-rasm. Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tizimini raqamlashtirish uslubi

Model hayotga tadbiiq qilingandan so‘ng mintaqalardagi yo‘l-transport hodisalari ichki ishlar xodimi tomonidan mobil ilova orqali ro‘yxatga olinib to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamli statistik hisobot jadvaliga borib tushadi; Hozirgi holatda mintaqadagi yo‘l-transport hodisalari hisobga olish ma‘lumotlari elektron shaklda yig‘ib olinadi va ma‘lumotlar qayta shakllantiriladi va bu ancha vaqt talab qilishi mumkin.

Ushbu tizimlarning joriy etilishi real vaqt rejimida yo‘l sharoitlari va baxtsiz hodisalar haqidagi so‘nggi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasini yaratishga yordam beradi. Bu avtomatik ravishda qayta ishlanadigan va oxirgi foydalanuvchilarga trafik ma’lumotlarini tarqatadigan algoritmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizam.
2. G‘.A. Samatov, R.G‘. Samatov, S.S. Rajapova, X.Sh. Choriyev: Logistika axborot texnologiyalari va intellektual transport tizimlari. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2020. 212 bet.
3. Нигматов Х: Информационная безопасность. Защита информации в сетях телекоммуникации. ШЫМКЕНТ 2013 – 188 с.
4. Truong, L. T. and Somenahalli, S. V. (2011). Using GIS to identify pedestrian-vehicle crash hot spots and unsafe bus stops. *Journal of Public Transportation*, 14(1), 99-114.
5. Manepalli, U.R., Bham, G.H., and Kandada, S. (2011). Evaluation of hotspots identification using Kernel Density Estimation (K) and Getis-Ord (G_i^*) on I-630.
6. Anderson, T.K. (2009). Kernel density estimation and K-means clustering to profile road accident hot spots. *Accident Analysis & Prevention* 41(3): 359-364.